

Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026- yil 1-fevral


- I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Qashqadaryo viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026- yilning 1-fevral holatiga ko'ra viloyatda 2 969 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 636 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,4 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 576 tasi (19,4 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 296 tasi (9,9 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 253 tasi (8,5 %) kiyim ishlab chiqarishga, 240 tasi (8,1 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga, 192 tasi (6,4 %) mebel ishlab chiqarishga, 171 tasi (5,7 %) to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni

1- fevral holatiga ko'ra



II. Qashqadaryo viloyat sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026- yilning yanvar oyida viloyatda korxonalar tomonidan 2 791,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,1 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qashqadaryo viloyati	2 791,5	105,1
Qarshi sh.	400,9	110,7
Shahrisabz sh.	28,5	110,4
tumanlar:		
G'uzor	419,4	98,1
Dehqonobod	103,1	116,1
Qamashi	63,3	101,0
Qarshi	117,8	75,6
Koson	301,8	175,3
Kitob	107,6	103,5
Mirishkor	41,1	114,5
Muborak	84,0	97,9
Nishon	449,0	105,8
Kasbi	164,0	105,1
Ko'kdala	23,8	110,8
Chiroqchi	30,0	100,8
Shahrisabz	31,7	91,3
Yakkabog'	64,5	107,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (2 601,5 ming so'm), G'uzor tumanida (1 827,7 ming so'm), Qarshi shahrida (1 320,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (759,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, Koson tumanida (171,3 %), Dehqonobod tumanida (113,7 %), Mirishkor tumani (112,2 %), Qarshi shahri (108,7 %), Shahrisabz shahri (108,4 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar oyida




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026- yilning yanvar oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 2 096,4 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (75,1 %) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 124,6 mlrd. so'm (4,5 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 550,9 mlrd. so'm (19,7 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 19,6 mlrd. so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi

2026- yilning yanvar oyida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



2026- yilning yanvar oyida viloyatda 1,47 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2025- yilning yanvar oyiga nisbatan 13,0 % ga ko'paygan), 2,98 ming tonna ip kalava (48,7 % ga kamaygan), 20,0 ming tonna kaliy xlorid (32,4 % ga ko'paygan) hamda 46,8 ming litr aroq mahsulotlari (29,9 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	2026- yil yanvar
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	2,7	1,3	1,5
ip kalava, ming tonna	5,9	5,8	3,0
Aroq, ming litr	143,2	156,4	46,8
Kaliy xlorid, ming t.	12,8	15,1	20,0
Dizel yoqilg'isi, ming t.	2,6	-	2,7
Poliyetilen, ming t.	12,3	12,3	12,5
Neft, ming t	1,0	0,7	0,6
Tabiiy gaz, mln kub.m.	6,0	6,1	10,8
Gaz kondensati, ming t.	8,8	8,7	3,5
Portlandsement, ming t.	81,3	84,8	88,0

**2025-2026- yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


. Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy
faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,5 % (2025- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 92,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,7 % (2025- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 91,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9 % ni (2025- yilning yanvar oyida 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 22,4 % (28,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,8% (5,6 %), quyi texnologiyali – 41,3 % (65,8 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 64,1 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 74,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar *	2025- yil yanvar *	2026- yil yanvar *
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	727,1	733,1	606,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	158,3	315,0	102,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 8,6 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 93,4 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar *	2025- yil yanvar *	2026- yil yanvar *
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	943,6	1 121,9	12 675,6
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	12 050,2	11 669,5	2 169,6

**2025-2026- yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 839,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,1 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 35,3 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E – Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://www.qashstat.uz/uz/>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Manzil:

180100, Qashqadaryo viloyati,
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy
75 221-32-36 (7010)
